

AS

2022-yil 1-iyul holatiga aholining yosh guruhlari bo'yicha mehnatga layoqatli tarkibi:

Mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar: **31,6%**

Mehnatga layoqatli yoshdagilar: **57,2%**

Mehnatga layoqatli yoshdan kattalar: **11,2%**

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

54 (16507)
2022-yil, 10-avgust
chorshanba

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

Kun mavzusi
2-bet

Endi "prava"ga olti
oy o'qitiladi(mi?)

"Yoshlar ovozi" – yoshlar bilan!
4-5-betlar

"Yoshlar ovozi"
Arnasoyda

Siz nima deysiz?
6-bet

Kutubxona
qamoqxona bo'lmasin



SHUHRATING PORLASIN TOKI BOR JAHON!

Shaxmat bo'yicha O'zbekiston erkaklar terma jamoasi
Hindistonning Chennay shahrida bo'lib o'tgan 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasi g'olibi bo'ldi.

batafsil
3-betda

ENDI "PRAVA"GA OLTIOY O'QITILADI(MI?)

Haydovchilik guvohnomasini olishda yangi tizim yo'lga qo'yilganidan xabaringiz bor. "Prava" olish uchun o'qish muddati uch oydan olti oyga cho'zilishi haqidagi mish-mishlar ham qulog'ingizga chalingandir? Xo'sh, muddatning uzaytirilishiga sabab nima? Guvohnoma olish uchun uch oy o'qish kamlik qilyaptimi? Texnikalar asrida birgina mashina boshqarishni o'rganish uchun olti oy uzoq muddat emasmi? Xorijiy davlatlarda bu borada tajriba qanday?



Kun davomida hech bo'lmasa bir marta avtohalokat haqidagi xabarga ko'zingiz tushadi. Xorazmda haydovchi YPX xodimining mashinasini urib yubordi; Toshkentda "Spark" va "Lacetti" ishtirokidagi avtohalokatda ikki, Jizzaxdagi yuk mashinasi ag'darilib ketishi oqibatida bir kishi halok bo'ldi. Raqamlar ham yildan yilga "ulg'aymoqda". 2020-yilda — 6982 ta avtohalokat sodir bo'lib, 1962 kishi halok bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda 10001 ta to'qnashuvda 2426 kishi, 2022-yilning yarmida esa 3 559 ta baxtsiz hodisa yuz berib, ular oqibatida 784 kishi qurbon bo'lgan.

Bu og'riqli muammo tizimli ravishda o'rganilganda asosiy aybdor haydovchilar deb topildi. Negaki ular avtomobil boshqarishda yetarli malakaga ega emas, bunga sabab esa "haydovchilik guvohnomasi" olishning "o'yin" bo'lib ketganidir! Ularni yanada puxtaroq o'qitish kerak, shunda yo'llarda harakat xavfsizligi ta'minlanadi.

Shu bois haydovchilik guvohnomasini olishda yangi tizim yo'lga

qo'yilgan edi. Natijada imtihon markazining sinovidan qo'rqan ko'pchilik darslarga jiddiy kirishadi. Lekin amaliy va nazariy darslarga to'liq qatnashib, bilimiga ishonib borganlar ham imtihon markazidan yiqilib qaytyapti. Haydovchilik guvohnomasi olishni istagan ko'pchilik otning kallasiday narxlardagi qo'shimcha mashg'ulotga yozilib, ikkinchi yo'uchinchi urinishda imtihondan o'ta olyapti. Negaki avtomaktablar uch oyda ham kerakli bilim va ko'nikmalarni bera olmayapti.

Haqli savol tug'iladi. Markazdagi malakali ustozlar qo'lidani dars o'lgach, imtihondan o'tilar ekan, o'qish muddatini uzaytirish emas, **o'qish sifatini yaxshilash haqida bosh qotirish kerak emasmi?** Avtomaktabdagi o'qitish sifati talabga javob bermasa, 6 oy o'qitishdan maqsad ko'proq pul olishmi? Umuman olganda, o'qish muddati emas, qanday o'qigani muhim emasmi?



XORIJGA NAZAR: 10 SOAT DARS KIFOYA

Albatta, imtihon jiddiy bo'lsa, qanday o'qishning ahamiyati yo'q, xorijiy davlatlarda uyda tayyorlanib ham "prava" olish mumkin. Imtihon shaffof bo'lsa, kifoya. Masalan, Fransiyada haydovchilik guvohnomasini olish uchun nazariy imtihonlarga o'zingiz mustaqil tayyorlanishingiz mumkin. Biroq bu yerda haydovchilik guvohnomasi olish nihoyatda murakkab, yaxshi tayyorgarlik ko'rmaganmisan, yiqilasan — tamom.

Sinovlar nazariy va amaliy topshiriladi. Kompyuter orqali nazariy

QOIDALARNI BILAMIZ, LEKIN AMAL QILMAYMIZ

O'quv muddatini uzaytirishdan maqsad haydovchilarni yanada puxtaroq o'qitish deyish mumkin. Bu qarorni qo'llab-quvvatlayotganlar ham kam emas. Qancha uzoq o'qissa, qoidani shuncha ko'proq o'rganadi. Lekin... faqatgina qoidalarni bilish bilan ish bitmaydi, ularga amal qilish, ijrosini ta'minlash ham zarur.

Tan olish kerak, yo'l qoidalari amal qilmaslik, bilib bilmaganlikka olish odatiy hayot tarzimizga aylangan. Ishga, o'qishga, uyga ketarkansiz, yo'l harakati qoidalari amal qilmayotganlarni kuza-tasiz, ehtimol, o'zingiz ham tartib buzuvchilardanirsiz. Kimdir qizil chiroqda yo'lni kesib o'tadi, boshqa birov piyodalar yo'lakchasi yo'qligi bois belgilanmagan joydan yuradi. Haydovchilar tezlikni oshiradi, mast holda mashina boshqaradi, telefonga javob beradi. Natijada, birovning umriga zomin bo'ladi, o'z hayotini barbot qiladi.

2021-yilda avariya yuzaga kelishiga sabab bo'lgan omillar o'rganilganda yo'l harakatini tashkil etish va yo'llardagi nosozliklar sababli — 23,2 foiz piyodalar o'tish yo'laklari yo'qligi sababli belgilanmagan joydan o'tish — 22,2 foiz belgilangan tezlikka rioya qilmaslik — 15,9 foiz, qarama-qarshi yo'nalishga chiqib ketish — 8,9 foizni, piyodalar o'tish joyidan o'tayotgan piyodani urib yuborish — 7,6 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, 7 foiz avtohalokat haydovchining tajribasizligi, yana 7 foiz esa veloyo'laklar bo'lmagan joylarda ularni urib yuborish kabi holatlarga to'g'ri kelmoqda. Qolaversa, bolalarni qarovsiz qoldirish barcha halokatlarning 2,9 foiziga sabab bo'lgan, avtomobilni mast holatda boshqarish 1,7 foiz YTHga olib kelgan. Boshqa sabablar bilan bog'liq holatlar esa 3,6 foizni tashkil etgan.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, ko'plab avtohalokatlarga sabab oddiy qoidalarni buzish (bilmaslik emas)dan kelib chiqqan. Mast holda mashina boshqarilmaslikni, qizil chiroqda to'xtash kerakligini, belgilangan tezlikka rioya qilish kerakligini olti oy emas, bir yil o'qitilsa ham, ularning ijrosi qat'iy nazoratga olinmasa, eski hammom, eski tos bo'lib qolaveradi. Shunday ekan, odamlarga qoidalarni o'rgatish uchun muddatni uzaytirish emas, balki ularni buzgani uchun jazoni kuchaytirish kerak.

Shahruza SATTOROVA,

"Yoshlar ovozi" muxbiri

TAHLILLARDAN KO'RINIB TURIBDIKI, KO'PLAB AVTOHALOKATLAR ODDIY QOIDALARNI BUZISHDAN (BILMASLIKDAN EMAS) KELIB CHIQQAN.

test imtihonlaridan o'tasiz. Amaliy imtihon esa anchagina qiyin. Unga kirish uchun avval siz instruktor bilan 30 soat avtomobil haydash tajribangiz bo'lishi shart. Fransiyada odatiy, eski usulda ishlovchi avtomaktablar bilan birga zamonaviy, innovatsion o'quv dargohlariyam bor, ular barcha o'quv dasturlarini avtomatlashtirgan, internetga yuklagan. Nazariy va amaliy tayyorgarlik parallel ravishda olib boriladi. O'quv jarayonida oraliq imtihonlari topshiriladi, yaxshi o'zlashtirmaganlar keyingi mavzularga o'ta olmaydi, dastur uni bloklab qo'yadi. Masalan, "burilish" mavzusida amaliy nazoratni topshira olmadigiz. O'qishni davom ettirish uchun siz mustaqil mashq qilib yoki repetitor yollab uni qayta topshirishingiz talab etiladi. Shuning uchun kamida 30 soatlik tajriba talab qilinadi.

Yoki Dubayni olaylik. U yerda o'qitish tizimi yuqori darajada yo'lga qo'yilgan. Nazariy imtihonlarga mustaqil tayyorlanishingiz mumkin. Bu imtihon IIvga kompyuterda topshiriladi, jami 30 ta savoldan kamida 27 tasiga to'g'ri javob bergan o'tadi. Amaliy imtihon esa bir oydan keyingga qo'yib beriladi, ammo imtihonni tezlashtirish xizmati ham mavjud. Avtomaktabda o'qish narxi soatbay hisoblanadi, umuman mashina boshqarishni bilmaydigan odam ham 10 soat dars olib, amaliy imtihondan bemalol o'ta oladi.





Shaxmat bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi vakili Jahongir Vohidov o'z doskasida individual natijalar bo'yicha oltin medal oldi.



O'zbekiston dunyo shaxmat maydonida o'z so'zini ayta oldi, yangi tarix yozishga muvaffaq bo'ldi. Hindistonning Chennai shahrida bo'lib o'tgan 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasida chempion bo'ldi. Bu chempionlik shaxmat olimpiadasi tarixidagi O'zbekistonning eng yuksak muvaffaqiyatidir.



29-iyuldan 9-avgustga qadar davom etgan shaxmat musobaqasida O'zbekiston shaxmat terma jamoasi muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Butun turnir davomida shaxmat olamining e'tiborini o'ziga jalb qila olgan yoshlarimiz bugun dunyoda yetakchiga aylandi. 11 turdan iborat shaxmat olimpiadasida O'zbekiston erkaklar va ayollar terma jamoasi ishtirok etdi.

TERMA JAMOAMIZ TURNIRDA BIROR MARTA HAM MAG'LUB BO'LMAGAN YAGONA JAMO BO'LDI.



SHUHRATING PORLASIN TOKI BOR JAHON!

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,
"Yoshlar ovozi" muxbir



2026-YILI BUTUNJAHON SHAXMAT OLIMPIADASI O'ZBEKISTONDA O'TKAZILADI!

Har bir qahramonimizni alohida e'tirof etish joiz. Zero, ularning har biri o'z mehnati, kuchi va aqliy salohiyati evaziga shiddatli bahs olib bordi. Yakunda O'zbekiston erkaklar terma jamoasi turnir davomida birorta ham mag'lub bo'lmasdan chempionlik baxtiga sazovor bo'ldi. Alohida ta'kidlash kerakki, terma jamoamiz turnirda biror marta ham mag'lub bo'lmagan yagona jamoa bo'ldi.

Olimpiadada ishtirok etgan har bir jamoa kuchli tayyorgarlikka ega. Lekin bizning yoshlar uchun haqiqiy ma'noda "bosh og'riq" bo'lgan ja-

ovoz berishda barcha delegatlar bir ovozdan O'zbekistonni tanlad!

Hindistondagi tadbirlar davomida O'zbekiston delegatsiyasi tantanali qabul marosimini tashkil etdi. Marosimda taniqli oshpaz Bahridin Chushtiy o'zbek palovini tayyorladi. Oshpazning mahorati sabab milliy o'zbek taomi barchani hayratda qoldirdi.

188 mamlakatdan kelgan 500 dan ortiq Kongress ishtirokchilari o'zbek taomlarining haqiqiy mazasini ta'tib ko'rishga muvaffaq bo'ldi. O'zbek palovi haqida iliq fikrlar yangradi.

Olimpiadada shaxmat bo'yicha O'zbekiston ayollar terma jamoasi ham yosh bo'lishiga qaramay muhim paytda kerakli g'alabalarga erishdi. Har bir o'yinda o'z irodasini namoyish etib, har bir ochko uchun kurashdi.

Xususan, so'nggi turda ayollar terma jamoasi Kosta-Rika ustidan 2,5:1,5 hisobida g'alabaga erishdi. Umumiy hisobda, qizlarimiz 14 ochko bilan 162 davlat orasida 31-o'rinni egalladi.

44-Butunjahon shaxmat olimpiadasida O'zbekiston terma jamoasi quyidagi tarkibda yurtimiz sharafini himoya qildi. Erkaklar terma jamoasi: GM Abdusattorov Nodirbek, GM Yakubboyev Nodirbek, GM Vohidov Jahongir, GM Sindarov Javoxir, GM Vohidov Shamsiddin.

Ayollar terma jamoasi: WGM Yakubboyeva Nilufar, WFM Omnova Umida, WFM Bobomurodova Maftuna, WCM Hamdamova Afruz va Malikova Marjona.

"Oltin avlod"

moalar AQSh, Hindiston, Armaniston vakillari edi. Chunki ular nihoyatda kuchli va tajribali jamoalar edi. Ular bilan o'yin so'nggi daqiqalargacha murosasiz kechganiga guvoh bo'ldik.

44-shaxmat Olimpiadasi FIDE tomonidan tashkil etilgan bo'lib, unda ochiq va ayollar o'rtasidagi turnirlar hamda shaxmatni ommalashtirishga qaratilgan bir qancha tadbirlar o'tkazildi.

Jumladan, Chennai shahrida bo'lib o'tgan FIDE kongressida O'zbekiston shaxmat federatsiyasi prezidenti Alisher Sa'dullayev 2026-yilda Toshkentda Butunjahon shaxmat olimpiadasini o'tkazish yuzasidan taqdimot qildi. Taqdimotlar yakuni- da 2026-yilda Butunjahon shaxmat Olimpiadasiga mezbonlik qilish uchun




“YOSHLAR OVOZI” ARNASOYDA

Yurtimiz aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Bugun har jabhada o'z iqtidori, iste'dodini namoyon etib kelayotgan, jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lishga harakat qilayotgan yoshlarimiz talaygina. Ularning orzu-istaklari, maqsadlari, intilish-u imkoniyatlari turli xil. Bunday yoshlar xoh shaharda, xoh qishloqda bo'lsin, "Yoshlar ovozi" gazetasi-ning doimiy e'tiborida.

Xususan, tahririyat "Yoshlar ovozi – yoshlar bilan!" loyihasini boshladi. Ushbu loyiha doirasidagi ilk safarimiz Jizzax viloyati Arnasoy shaharchasi "Bobur" mahallasiga bo'ldi. Ishni dastlab yoshlar hayotida ozmi-ko'pmi o'zining hissasini qo'shib kelayotgan, ularning o'z o'rniga ega bo'lishida ko'makdosh bo'layotgan mahalla yoshlar yetakchisining ish faoliyati bilan tanishishdan boshladik.

Abdulaziz AHMEDOV, Dilnoza ABDUHAMIDOVA
Fotolar muallifi Behruz RAJABOV



“

25 TA QO'Y BILAN FAOLIYATIMNI BOSHLAGANMAN.
33 MILLION SO'M KREDIT OLIB,
FAOLIYATIMNI KENGAYTIRDIM.

QIRLARDAN OSHGAN QADAMLAR

YOSHLARNING BO'SH VAQTI – YETAKCHINING ISH VAQTI!

Sherali Mingboyev yetakchilik qilayotgan "Bobur" mahallarda 2 mingga yaqin yoshlar bo'lib, shulardan 63 nafari "Yoshlar daftari"ga kiritilgan. Ularning 57 nafariga yordam ko'rsatildi. Qolganlariga ham ko'mak berish choralari ko'rilmoqda. "Yoshlarning bo'sh vaqti – yetakchining ish vaqti" tamoyiliga amal qilgan holda o'z yoshlarini uzluksiz nazorat etib borayotgan yoshlar yetakchisi tashabbusi bilan 38 nafar yoshga auktsion orqali 10 yil muddatga dehqonchilik qilishi uchun yer olib berilgan. Ular ayni paytda qovun-tarvuz, dukkakli o'simliklar yetishtirmoqda. Bir qancha yoshlar chorvachilik bilan shug'ullanib, oilasiga ko'makdosh bo'lyapti. Kasb-hunarga o'qitilib, sertifikat olayotgan yoshlar esa kelajagi uchun yana bir dadil qadamni tashlamoqda.

Bu mahalla yoshlari sportsevar, ularning yutuqlari ham aynan shu jabhadir. Yoshlar futbol, basketbol voleybol, shaxmat bo'yicha yutuqqa erishgan.

– Mahallamiz yoshlari bu yil kutilmagan natijalarni qo'lga kiritmoqda. Voleybol musobaqasining viloyat bosqichida 16-21 hamda 22-26 yosh toifasida yoshlarimiz yuqori o'rinni egallab, Farg'ona viloyatida o'tkazilgan respublika bosqichida 2-o'ringa sazovor bo'ldi. Natijada mahallamizda 2 ta bir xil Universal sport maydonchasi qurilishi uchun sertifikatni qo'lga kiritdi. Har ikki sport maydonchasi uchun ham joylar tanlangan, tez orada qurilish ishlari boshlanadi. E'tiborlisi, har ikki g'olib jamoa qizlardan iborat. Bu mahallamizda nafaqat yigitlarimiz, balki qizlarimiz ham sport bilan hamnafas ekanidan dalolatdir, – deydi qahramonimiz.

Bundan tashqari yoshlarni kitobxonlikka jalb etish, ularning ma'naviy dunyosini boyitish maqsadida mahallada mo'jazzgina kutubxona ochilgan, bu yerda 6 mingdan ortiq kitob jamlangan. Bu esa mahalla yoshlarini o'z bag'riga chorlaydi. Yoshlar mutolaa zavqini shu yerda his etishmoqda.

– Mahallamizda tashabbuskor yoshlarimiz nihoyatda ko'p. Shulardan biri Bekzodjon Farmonov. Uning taklifi bilan mahalladagi ishsiz yoshlardan iborat "Shovvotlar" jamoasini tuzdik. Jamoa tumanda 3 kun konsert berdi. Bundan biz ham, mahalla ahli ham juda quvonдик. Buni qarangi, Bekzodjon bugungi kunda omadi kelib tuman madaniyat saroyiga ishga olindi, – deydi yoshlar yetakchisi.

Keng dala. Yantoq va changalzor ichida quyoshda qoraygan, ozg'in, qo'y haydab yurgan yigit ko'rinadi. Bu yurtimizda yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan yoshlardan biri – Toyir Abdulhamidov. U yoshlar yetakchisi Sherali Mingboyev tashabbusi bilan "Yoshlar daftari"ga kiritilib, 33 million so'm kredit olgan.

– Otam veterinar, akam ham shu soha bo'yicha o'qigan. Faqat men o'rta maxsus ma'lumotga egaman. 25 ta qo'y bilan faoliyatimni boshlaganman. 33 million so'm kredit olib, faoliyatimni kengaytirdim. Ayni paytda 150 ga yaqin qo'yim bor. Yillik daromadim o'rtacha 60-80 million so'm. Mashina oldik, shu yil oxirigacha uy ham olib, oila qurish niyatidaman, – deydi Toyir.

Toyir – 26 yosh, hozir abituriyent, Jizzax politexnika institutining sirtqi ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan. Dala uning boshpanasi, o'lan to'shagi. 3-4 kun yoki bir haftada bir uyiga keladi. Vaqti yaylovda o'tadi. Zeriksa, qo'shiq kuylaydi, DTM imtihonlariga tayyorlanadi.

– Muhimi, o'z Vatanimdaman. Tengdoshlarim necha yillardan beri o'zga yurtlarda musofirchilikda yuribdi. Ularning yo'rig'i boshqa. Men esa otanamning yonida, halol mehnat qilib, peshona terim bilan rizqimni topishni xohlayman. Mehnat qilgan odam qa-

yerda bo'lmasin, nonini topib yeya oladi, – deydi Toyir Abdulhamidov.

Suhbatdoshimizning ota-bobosi cho'pon bo'lgan. Bu sohaga mehri bo'lakcha. Uning aytishicha, ishiga ozgina mehr berib, jonivorlarni sidqildan parvarish qilsa, vaqtida emlab tursa bo'lgani. Qo'y barakali bo'ladi, o'z-o'zidan ko'payib ketaveradi. Har yili uning 60-70 ta qo'yi bolalashidan ham o'zingiz xulosa qilavering.

O'z kasbini yaxshi ko'rgan, vazifasini chin ko'ngildan bajargan insonga hamisha omad kulib boqadi, topgan-tutganining barakasi bo'ladi. Uy yoki mashina olish, yaxshi daromad qilish uchun tadbirkor, nomi dunyoga mashhur biznesmen, yoxud o'zga yurtlarda musofir bo'lish shart emas. Chekka qishloqning bir burchagida, qir-adirlarda qo'y boqib ham daromad qilsa, orzularini amalga oshirsa bo'ladi. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida...



“

16-21 HAMDA 22-26 YOSH TOIFASIDA YOSHLARIMIZ YUQORI O'RINNI EGALLAB, FARG'ONA VILOYATIDA O'TKAZILGAN RESPUBLIKA BOSQICHIDA 2-O'RINGA SAZOVOR BO'LDI.



YERNI BOQSANG...

Ilhomjon Boymurodov 1996-yil da tug'ilgan. Ijodiy jamoamiz bilan uning tarvuz paykaliga bordik. Sarcaton. Ayni tush mahali. Yerdan ishlash u yoqda tursin, nafas olish ham bir mahol. Shu vaqtda qahramonimiz yelkasiga ketmonni "qo'ndirib", bizga peshvoz chiqadi. Suhbatimiz esa quyoshning issigidan-da qiziy boshlaydi.

– Mahalladagi yoshlar yetakchisi Sherali aka Mingboyev yordami bilan 10 yil muddatga 1 gektar yer oldim. Hozir tarvuz, mosh va makkajo'xori yetishtiryapman. Hosildan 50–60 million so'm sof foyda olaman. Yaqinda avtomobil oldim. Yil oxirigacha uy olishni reja qilypapman. Yana 10 kundan so'ng tarvuz tayyor bo'ladi, bu yil suv yaxshi, yog'ingarchilik ham bearmon bo'ldi. Xudo xohlarsa, yaxshi daromad olish niyatidaman.

Yerni boqsang, yer seni boqadi, deganlaridek, Ilhomjon oilada ikkinchi farzand, akasi va 3 nafar singlisi

bor. Bugun singillarini uzatdi, akasi oila qurdi. Endi navbat o'ziga yetib keldi. "Kuzgacha to'y qilaman, keyin uy olaman!", – deb ko'zlarida umid va ishonch uchqunlari porlagancha davom etadi qahramonimiz.

– Halol mehnat qilypapman. O'zimga xon, o'zimga bekman. Kelajakda katta fermer bo'lmoqchiman. Yanayam yerning "tili"ga tushunib, daromadimni oshirib olsam, uzog'i 2–3 yilda 30–40 gektargacha yer olib, faoliyatimni yanada kengaytiraman!

Yurtimizda u kabi sodda, ochiqko'ngil va mehnatsevar yoshlar borligidan faxrlandik. Ilhomjon Boymurodov suhbatga shunday yakun yasadi:

– Men o'z Vatanimga yelkamdagi ketmonim bilan xizmat qilypapman. Mehnatimning rohatini ko'ryapman. Xalqimizning dasturxonini to'kis bo'lishiga ozmi-ko'pmi hissa qo'shayotganimdan bir yosh dehqon sifatida baxtiyorman!



KO'ZLARI QUYOSHDEK PORLAYDI

Navbatdagi qahramonimiz – **Charos Adiyeva**. Ko'zlari quyoshdek porlab turadigan bu qizning intiluvchanligi bizni hayratga soldi. 22 yosh bo'lishiga qaramasdan, "Miss Charos academy" xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan abituriyentlar o'quv markazi rahbari hisoblanadi.

– Bizning o'quv markazimizda yoshlarga rus hamda ingliz tillarida dars beriladi. Bugungi kunda yuzdan ortiq yoshlarni qamrab olgan markazimiz faoliyatini yanada kengaytirish niyatidaman. Qariyb besh yildan buyon

DALADA CHINIQQAN CHEMPION

– Mening krossovkam ham yo'q edi, – deydi "Bobur" mahallasidagi yosh sportchi qiz **Muborak Norboboyeva**. – Oilada 4 nafar qizimiz. Hozir Annasoy tumanidagi harbiy sohaga ixtisoslashtirilgan 22-IDUMning 8-sinfida o'qiyman. Yoshim 14 da. Bolaligidan sportga, harbiy sohaga qiziqaman. Ammo mashg'ulotlarga borishga imkoniyatim yo'q edi. Ayni paytda esa o'zbek jang san'ati bilan shug'ullanib kelyapman.

Qishloq hayoti, mol-hol, tomorqadagi ishlar bilan andarmon bo'lib yurgan bu samimiy insonlar xonadonida qorong'i tushguncha qolib ketdik. Qahramonimizning oddiy, hech qanday jimjimador jumllalar bilan bezak berilmagan gap-so'zlari tinglash bizga o'zgacha zavq bag'ishladi!

– Uyimizning yonida yaylov bor. Shu yerda mollarimni, qo'yalarimni boqib yurardim. Televizordagi sportchi qizlarni ko'rib rosa havas qilib, ularday bo'lish uchun o'zim doim shug'ullanib yurardim. Bir kuni maktabimizda Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan yugurish bo'yicha musobaqa o'tkazildi. Dalada chiniqqan, mehnatda toblangan menday qizaloq uchun bu orzularimni ro'yobga chiqaradigan yagona imkon edi. Keyin g'olib bo'ldim. So'ng tumanimizdagi harbiy maktabga tayyorlana boshladim. Bu yerdagi imtihonlarni a'lo baholarga topshirib, o'qishga qabul qilindim. Ota-onam bundan judayam xursand bo'ldi.

Muborak harbiy sohaga ixtisoslashtirilgan maktabda o'zi orzu qilgan muhitni topdi. Bu yerda o'zbek jang san'ati bilan shug'ullanishni boshlaydi. Mashg'ulotlardan tashqari YouTube tarmog'idan ham bu sport turiga oid videolarni ko'rib, sport sirlarini o'zlashtirib bordi.

Suhbatdoshimizning ilk musobaqasi Jizzax shahrida bo'ladi. Bunda o'zidan ko'ra malakali va tajribaliroq sportchi bilan jang qilgani uchun u yengiladi. Chunki Muborak o'zbek jang san'ati bilan endi shug'ullana boshlagan edi. Qahramonimiz Toshkentda bo'lib o'tgan musobaqaga alohida tayyorgarlik ko'radi.



– Toshkentga birinchi marta borishim edi. Bu musobaqa oyimning tug'ilgan kuni arafasiga to'g'ri keldi. Oyimga "Tug'ilgan kuningizga medal sovg'a qilaman!", deb ketgandim. Mehnatlarim meva berdi: musobaqada 1-o'rinni qo'lga kiritdim, – deydi qahramonimiz.

Muborak oddiy qishloq qizining o'z harakati va tirishqoqligi bilan yuksak natijalarga erishishi mumkinligini isbotlashga urinayotgan yoshlarimizdan. O'ylaymizki, u buni uddalayapti. Joriy yil 23-avgust kuni Xorazm viloyatida ham musobaqasi bor, ayni kunlarda ustozlari bilan unga tayyorgarlik ko'rmoqda.

– Kelajakda ota-onamni Haj safariga jo'natishni maqsad qilganman. Eng katta motivatsiyam ham shu va bu uchun aстойdilar harakat qilypapman. Hali kelajakda shu darajada zo'r sportchi, zo'r harbiy bo'lib yetishamanki, qishloq qizlaridan ham ajoyib natija ko'rsatadigan chempionlar, "katta" odamlar chiqishini isbotlab bermoqchiman!

uyda o'zim dars berib kelaman. Tumanimizda o'quv markazlari sanoqli bo'lganligi sabab bu borada o'zimni sinab ko'rishga harakat qildim. Bu vaqt oralig'ida Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayevning rasmiy kanalida ovozi chat bo'ldi. O'shanda men u kishiga oliy ma'lumotli emasligimni, biroq o'quv markazi ochish istagim borligini aytdim. Sentabr oyida o'tkaziladigan "Imkoniyat" loyihasida ishtirok etishimni tavsiya qildi. Bu loyihaning tuman, viloyat, respublika bosqichlarida ishtirok etdim. Qunonarlisi, respublika bosqichida g'olib bo'lib, grant yutgan 70 nafar yoshlar qatoriga kirdim. Tez orada "Bo'stonliq" oromgohida o'tkazilgan bir haftalik o'quv jarayonlarida ishtirok etdim. U yerda mutaxassislardan bilim va tajriba olib qaytdik. Shundan keyin bizga 50 million so'mdan subsidiya berishdi. Shaxsan Alisher Zafarovich menga yana bir imkoniyat berdi: o'quv markazimda o'qib, viloyatimizdagi oliy ta'lim muassasalari talabasi bo'lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlarning shartnoma pullari to'lab berilishi aytiladi. Kelajakda mahallamizda xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan bog'cha, xususiy maktab hamda IT markaz ochish niyatidaman. Bilimlarimni yanada oshirib, Oksfordda o'qishga tayyorlanypapman.

Tahririyatimiz endi siz bilan hamnafas. Bizni kuting. Keyingi safarimiz, Sizing manzilingiz bo'lishi mumkin!

Shahribonu RAHMATOVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

Foto muallifi: Behruz RAJABOV



Kutubxonalar ma'naviy-madaniy markaz sifatida jamiyatning axborot ehtiyojlarini qondirish, fan, maorif, milliy madaniyatni boyitishga xizmat qiladi. Yurtimizdagi eng yirik kutubxonalardan biri Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasidir.

Kutubxona 1870-yili may oyida Toshkent ommaviy kutubxonasi sifatida ochilgan. 1948-yilda kutubxonaga Alisher Navoiy nomi, 2002-yil esa Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi maqomi berilgan. Foydalanuvchilar uchun qiroatxona, internet markaz, media markaz, internetga ulangan o'quv kompyuter markazi, oshxona va yana bir qancha sharoitlar bor.

Bir qarashda bu yerda barcha imkoniyatlar yaratilgan, deb ayta olamiz. Ammo hech narsa to'kis bo'lmaydi – bir kam dunyo. Keling, kutubxonaga birgalikda sayohat qilamiz.

Kutubxonaga kirish kuchli nazoratga olingan, dastlab metal-lodetektordan o'tishingiz lozim, so'ng gvardiya xodimi boshdan oyoq tekshirib chiqadi. Yozmi-qishmi, kiyimingiz qalinmi-yupqami ahamiyati yo'q, sizni titkilab ko'rishlari shart. So'ng esa sumkangizni tekshirishadi.

Keyingi manzil "garderob". U yerda "shirinsoz" xodimlar tarbiya darsini o'tishadi, har bir yosh bunday siyovdan bebahra qolmaydi. Sumkangizni olib kirishingiz mumkin emas, shu bilan birga, sumkangizda narsalarni qoldirib kirishingiz ham ilojisiz, katta qilib yozib qo'yishingan:

"Sumkangizning ichidagi narsalarga javob bermaymiz!".

Qiziq-a? Sumkadagi narsalarga javob bermasliklarini aytib turishsa, qanday qilib ishonib topshirib ketasiz?! Buyumlaringiz yo'qolishidan hadiksirab, bor narsani olasiz: kompyuter, quvvatlagich, kitoblar, daftarlar, ruchkalar va hokazo. O'zingiz bilan olib kirayotgan har bir kitob uchun ruxsatnoma ham olishingiz kerak.

Kutubxonaning asosiy qismiga guvohnomasiz kira olmaysiz, ID-karta uchun rasmga tushish kerak. ID-kartani olgach, ikkinchi tekshiruv postiga kelasiz. Postda odamlarni ko'raverib zerikib ketgan gvardiya xodimi "muloyimlik"

bilan tekshiruvdan o'tkazadi, guvohnomangizni so'raydi, undagi rasmni sizga o'xshatishga harakat qilib ikki-uch bor qaraydi. Kitoblarning har birini tezda varaqlab chiqadi.

Navbat yuqoridagi qavatlariga. U yerda hammasi yaxshi deb o'ylasangiz, adashasiz. Kutubxonada ichidagi atmosfera o'qishga motivatsiya beradigan joy emas. Ba'zi bo'limlardagi xodimlarning qarashi mutolaa ishtiyoqini so'ndiradi. Ularga bir marta savol berib, qayta yoniga yaqinlashmaydigan bo'lasiz. Xodimlarga tabassum qilish bo'yicha trening o'tish kerak, chamasi.

Kutubxonada ko'p narsa, shu jumladan, telefondan foydalanish, hattoki oshxonada ham gapirish, o'zingizga kerakli kitobni nusxalab olishingiz mumkin emas.

To'g'rirog'i, 15 foizni nusxalash mumkin,

mualliflik huquqi sabab shunday taqiq qo'yilgan. Lekin bu taqiq nashr etilganiga 50 yildan oshib ketgan kitoblarga ham tegishli ekan taajjubga soladi.

Chiqib ketishda ham jiddiy yuz ifodasidagi gvardiya xodimi yana guvohnomani so'raydi, "talab shunaqa" deyishadi. Chiqib ketayotganda kirish guvohnomasini so'raydigan O'zbekistondagi yagona tashkilot milliy kutubxonaga bo'lsa kerak.

KUTUBXONA QAMOQQXONA BO'LMASIN

Kutubxonaga kirishda hatto ustingizdagi kiyim sabab ham taqiqga uchrashingiz mumkin. Ishonmaysizmi? Unda talaba Surayyo Xayrullayevaning so'zlarini tinglang:

– 16-iyul kuni IELTSga tayyorlanadigan qizlar telefon qilib "reading"ni tekshirib berishimni so'rashdi. Birga kutubxonaga bordik. Chunki "book cafe"da o'tirishning 2 soati 50 ming so'm bo'ladi, bog'da o'tiradigan desak, havo juda issiq. Egnimga oq kofta (hech qayeri ochiq emas) va shortik kiygan edim. Shortikda bo'lganim uchun eshikdan kirgizishmadi. "Nega shortikda kirish mumkin emas?" – desam, kutubxonada xodimi: "Bu yerga odamlar o'qigani keladi", dedi. A?! Tasavvur qiling, Toshkentdaman, bir qancha xalqlar yashaydi, yozda shunday kiyimlar barcha yoshlarga qulay, lekin kutubxonaga shuni deb kirgizmasa-ya?!

Aslida kutubxonalardagi muhit erkinlikni his etishga yordam berishi kerak. Shundagina o'quvchilarni ohanrabo kabi o'ziga chorlaydi. O'zbekiston milliy kutubxonasidagi muhit insonni qafas ichiga solib qo'ygandek bo'ladi.



Ba'zi o'quvchilar bosma va elektron kitoblar, dissertatsiyalar resursi juda kattaligidan boshqa tanlov yo'qligidan, ba'zi yoshlar esa shunchaki dars qilish uchun borishadi. Kutubxonani muzey kabi qo'riqlash, shuncha taqiqqlarni o'rnatish shartmi?

Nazarimda, kutubxonaga kirish erkin bo'lishi kerak. Katta kutubxonalarda noyob qo'lyozmalar bor, ularni asrashimiz kerak, deyingiz mumkin. Lekin bunday qo'lyozmalar doim yopiq fondlarda bo'ladi va u yerda maxsus ruxsatnoma yoki xat bilan kiriladi. Yuqoridagi tartiblar esa odamni bezdiradi, charchatadi, xolos.

Biz, kitobxonlar milliy kutubxonaga rahbarlari va mas'ullar kutubxonada tartibi, g'oyasi, faoliyati mohiyatini qayta ko'rib chiqishlari so'rgan bo'ladik.

"BESH TASHABBUS OLIMPIADASI"GA TAYYORGARLIK BOSHLANDI

Iqbol PARDAYEVA



Mahallalardagi yoshlar yetakchilarining muhim vazifalaridan biri – yoshlarni "Besh tashabbus olimpiadasi"ga tayyorlash. Shu bois, yetakchilarning malakasini oshirish, "Besh tashabbus olimpiadasi"ning ikkinchi mavsumiga puxta tayyorgarlik ko'rish maqsadida Yoshlar ishlari agentligining barcha tuman bo'limlari tomonidan o'quv-seminarlar tashkil etilmoqda.

Shunday o'quv-seminar Andijon viloyatining Izboskan tumanida o'tkazildi. Unda yoshlar yetakchilari olimpiada doirasidagi madaniyat va san'at tar-

lovlari, sport musobaqalari hamda intellektual o'yinlar, ularni o'tkazish tartibi bilan yaqindan tanishdi.

Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanida tashkil etilgan o'quv-seminarda tumanidagi mahallalarda faoliyat yuritayotgan yoshlar yetakchilari, maktab direktorlarining ma'naviy va ma'rifiy ishlari bo'yicha o'rinbosarlari, sport murabbiylari hamda maktablardagi ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilar ishtirok etdi. Ular "Besh tashabbus olimpiadasi"ning ikkinchi mavsumini yuqori saviyada tashkil etish bo'yicha zarur bilimlarga ega bo'ldilar.

“Yoshlar ovozi” gazetasining YO_tahririyat_bot – murojaatlar manziliga yuborilgan ijod namunalari e'tiboringizga havola etish bilan birgalikda yosh ijodkorlarni ham kashf qilishni boshladik. Bu galgi qahramonimiz Jizzax viloyatining Zafarobod tumanida istiqomat qiluvchi 18 yoshli Shahnoza Suyunova. U jurnalistika sohasiga qiziqadi va ayni paytda O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetiga hujjat topshirgan.

Quyida Shahnozaning publitsistik maqolalaridan namunalar chop etilmoqda.



Shahnoza SUYUNOVA



NEGA DARSDA TELEFON ? O'YNAYMIZ.

MILLION DOLLARLIK KITOB

Televizor pultini qo'lingga ol. Istalgan kanalni kuzat. Shoularni ko'r, xohlasang, bir oy tomosha qil. Birorta kanalda qaysidir asar haqida katta tortishuvlar bo'layotganini ko'rsang, iltimosi men bilan aloqaga chiq. Chunki sen olamshumul yangilik topgan bo'lasan.

Bizdagi aksariyat shoularda qaysidir bolaning onasi bilan tortishib qolgani, kimningdir eri uyga doim ichib kelib janjal qilishi, aka-ukalar otasidan qolgan me'rosni talashishi yoki qaysidir tiktokerning xatti-harakatlari muhokama qilinadi. Jamiyat ziyolilari esa “Yoshlar kitob o'qimayapti”, deb nolib yurishadi.

Xo'sh, endi o'zingiz o'ylab ko'ring, shou biznesda, ko'rsatuvlarda va internetda yuqoridagi kabi informatsiyalar targ'ib qilingan bir paytda yoshlar kitobga qanday qiziqishi mumkin!

To'g'ri, aslida o'qishga arzigulik kitoblarimiz juda ko'p. Ammo ularni targ'ib qilishni bilmaymiz. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanini olaylik. Hissiyotlarga to'la, ajoyib asar. Kitobdagi eng salbiy qahramon kim degan savolga ko'pchilik Zaynab deb javob beradi. Sababini so'rasangiz, u Kumushni zaharlab o'ldirgan, deyishadi.

Ba'zilarning fikricha, asardagi salbiy qahramon Otabek. Chunki u har qanday holatda ham Zaynabni sevmas ekan, ikkinchi rafiqa sifatida unga uylanmasligi kerak edi. Axir Zaynabning ham baxtli bo'lishiga haqiqat bor va asarda Zaynab anchagina chiroyli ayol sifatida tasvirlangan.

Endi o'zingiz o'ylab ko'ring va haqqoniy javob bering. Siz ham Zaynabning holatiga tushganingizda, Otabek sizga emas ko'proq Kumushga yon bosganida, uni ko'proq

yaxshi ko'rganida, siz esa chetda qolib ketganingizda ham baribir bu ishni qilmasdim, deb ayta olasizmi? Axir Zaynab ham baxtli bo'lishni xohlagan. E'tibor bersangiz, asar so'ngida Zaynab jinni bo'lib qoladi. U shunchalar yovuz bo'lganida aqlidan ozmas edi. Ko'rinib turibdiki, u eng salbiy qahramon emas.

Ko'pchilik yigitlar esa asarda Kumushning fe'li va xatti-harakatlarini salbiy baholaydi.

Kumush Otabekka turmushga chiqayotib unga qizlik uyida yashash shartini qo'yishi va bu orqali Otabekni o'z ota-onasidan uzoqlashtirishini oqlab bo'lmas holat deyishadi. Chunki o'zbek urf-odatlariga ko'ra qiz bolaning to'yi bo'ldimi, turmush o'rtog'i qayerda yashasa, u bilan birga ketishi kerak.

Endi tasavvur qiling, qaysidir telekanal shousida odamlar asar qahramonini oqlash uchun boshqalar bilan bahsga kirishib, hattoki urushib ketdi. Ishoning, bu manzarani kuzatayotgan tomoshabin, albatta, o'sha kitobni qidirib topadi va o'qib chiqadi. Chunki shuncha odam tortishuviga sabab bo'lgan kitob barchaga qiziq tuyuladi. Mana sizga kitobni targ'ib qilishning eng yaxshi usuli. Ammo biz kitobni emas, faqat shou biznesni PR (piar) qilamiz. Balki shoularimizda asarlar haqida shunday tortishuvlar uyushtirsak, qaysidir xonandaning konsertiga biletlar emas, yozuvchilarimiz asarlari million dollarga sotilar?..

“Diqqat! Dars boshlandi. Hozir 15 daqiqa mavzuni tushuntiraman, keyin telefoningizdan foydalanaverasiz”, – degan o'qituvchi mavzuni 45 daqiqa tushuntirganini o'quvchilar sezmay ham qolishdi. Qo'ng'iroq chalingandan so'ng o'quvchilardan biri turib: “15 daqiqa mavzu tushuntiraman degand-ingiz, 45 daqiqa o'tganingizni ham bilmay qolibman”, – dedi.

Bugun ko'plab o'qituvchilar o'quvchining darsga e'tiborsizligiga telefonni sabab qilib ko'rsatishadi. Telefon bo'lmagan davrda ham o'quvchilar boshqa mashg'ulotlar bilan shug'ullanib o'tirishgan. Aslida dars qiziq bo'lsa, o'quvchi telefonga qaramaydi ham.

O'quvchilarning darsda telefonidan foydalanish sabablari nimada degan savolga ba'zi o'qituvchilar arziri javob ayta olish-

maydi. Bir pedagog shunchaki internetga sho'ng'ib ketish desa, boshqasi o'qituvchini videoga olib tarqatish uchun deydi.

Aslida o'quvchilarga darsdan ko'ra, internetdagi katta axborot oqimi qiziq ko'rinadi. Chunki o'qituvchidan so'raydigan savolni “Google”ga yozsa, aniq va to'liq ma'lumot chiqib keldi-da. To'g'ri, qaysidir ma'noda faqat o'quvchining yonini olish ham xatolik bo'ladi. Ularning ko'pchiligi vaqtlarini bekorchi narsalarga sarflab yuborishadi, ammo maktabdagi ta'lim sifati pastligini faqat aloqa vositalariga to'inkash to'g'ri emas. Telefonni taqiqlash yoki cheklash ham muammoga yechim bo'la olmaydi. O'quvchi quloq solmasligi mumkin.

Shunday ekan, avvalo, maktablarda dars o'tish uslubini o'zgartirish kerak.

Mashhura NASRIDINOVA
tayyorladi

“

O'QISHGA ARZIGULIK
KITOBLARIMIZ JUDA KO'P.
AMMO ULARNI TARG'IB
QILISHNI BILMAYMIZ.

TIL BILIMI

TALMEH

Talmeh (arabcha – ishora qilish, biror narsa tomonga yengil nazar tashlash) – mumtoz she'riyatda keng qo'llangan badiiy san'atlardan biri.

Bu san'at zamonaviy she'riyatning ham eng ko'lamdor, ko'p murojaat qilinadigan turi sanaladi. Lirik qahramonning iztiroblari yoxud holatini o'quvchiga yaqqol namoyon etish maqsadida tarixiy shaxslar va qissalar yodga olinadi. Bunda shoir mashhur bir qissa, voqea yoki asarga ishora qilish orqali o'z fikrini muxtasar hikoya qiladi. Shunga ko'ra, Talmeh she'riyatda oz so'z bilan ko'p ma'no ifodalash san'ati hisoblanadi.

Masalan, mumtoz adabiyotda Ogahiyning ushbu misralari talmehga misol bo'la oladi:

Xoki taning barbod bo'lar jahonda oxir necha yil,
Sayr et Sulaymondek taxting qurib bod ustina.

Zamonaviy adabiyotda Ravshan Haqmurud ham talmehdan o'ziga xos tarzda foydalangan:

Garchi oshiq bo'lib keldim dunyoga,
Sulaymon emasman. Bilqis yashaydi.

Rashid XO'JAMOV

"YOSH KITOBXON"

TANLOVNING YANGI NIZOMI TASDIQLANDI

"Yosh kitobxon" respublika tanlovining yangi nizomi tasdiqlanganidan xabaringiz bo'lsa kerak. Unga ko'ra, joriy yilning sentabr-dekabr oylarida o'tkaziladigan tanlov avvalgilardan farqli ravishda 5 bosqichda tashkil etilib, uning birinchi bosqichi mahallada boshlanadi (Eslatib o'tamiz, avval tanlov uch bosqichda bo'lib, unda ishtirokchilar tuman - viloyat - respublika bosqichida kuch sinashar edi).

1

Birinchi bosqich - tanlovning arizalar qabul qilish va mahalla bosqichi bo'lib, bu bosqichda ishtirokchilardan arizalar qabul qilinadi va ishtirokchilar test sinovi asosida saralanadi.

Arizalar 1-sentabrgacha qabul qilinadi va qatnashchilar sentabrning ikkinchi o'n kunligida **25** ta test savollari asosida sinovdan o'tkaziladi. Har bir to'g'ri javob uchun **4** baldan beriladi.

Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV,
"Yoshlar ovozi"
muxbiri

2

Ikkinchi bosqich - tanlovning sektor bosqichi bo'lib, oktabr oyining dastlabki **10** kunligida bo'lib o'tadi va **40** ta test savoli belgilanadi. Ishtirokchilar har bir to'g'ri javob uchun **2,5** baldan jamg'arib boradi.

3

Uchinchi bosqich - tanlovning tuman (shahar) bosqichi bo'lib, oktabr oyining uchinchi o'n kunligida ishtirokchilar "Badiiy asarlar bilimdoni" hamda "Tezkor savol-javob" sharti asosida bellashadi.


4

To'rtinchi bosqich - tanlovning hududiy bosqichi bo'lib, noyabr-dekabr oylarida o'tkaziladi. Bu bosqichda ham ishtirokchilar "Badiiy asarlar bilimdoni" hamda "Tezkor savol-javob" sharti asosida bahs olib boradi.

5

Beshinchi bosqich - respublika - final bosqichi bo'lib, dekabr oyining ikkinchi o'n kunligida o'tkaziladi. Ishtirokchilar "Badiiy asarlar bilimdoni", "Tezkor savol-javob", "Buyuk muftakkir va adib", "She'riyat" hamda avvalgi mavsumlardan farqli ravishda "Insho yozish" shartlari asosida bellashadi.

Insho yozishda ishtirokchilar biletlardan birini tortish orqali mavzu tanlaydilar va mavzu yuzasidan o'z fikrlarini bayon etadilar. Mazmun-mohiyatini ochib berish, imlo va uslubiy qoidalarga rioya etgan holda **3-5** sahifadan kam bo'lmisligi talab etiladi. Insho yozish uchun **60** daqiqa vaqt belgilanadi.



Huquqingizni bilasizmi?

TIBBIY YORDAM KO'RSATMASA, 1,5 MILLION SO'MGACHA JARIMA TO'LAYDI

Hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli holatda bo'lgan shaxsga tibbiyot tashkilotlarida shoshilinch va (yoki) kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam ko'rsatishi kerak bo'lgan shaxs tomonidan shunday yordam ko'rsatishni asossiz ravishda rad etish:


fuqarolarga -

**900 MING SO'MDAN
1,5 MLN. SO'MGACHA;**

mansabdor shaxslarga -

**1,5 MLN. SO'MDAN
3 MLN. SO'MGACHA**

jarima solishga sabab bo'ladi.



Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin 1 yil davomida takroran sodir etilsa:

fuqarolarga -

**1,5 MLN. SO'MDAN
3 MLN. SO'MGACHA;**

mansabdor shaxslarga -

**3 MLN. SO'MDAN
4,5 MLN. SO'MGACHA**

jarima solishga sabab bo'ladi.

E'LON

Yunusobod tumani mahalla va nuroniy-larni qo'llab-quvvatlash bo'limiga davlat gerbi tushirilgan muhmi olish uchun berilgan asl nusxadagi ruxsatnoma va kvitansiya shu yil 5-avgust kuni yo'qolgan. Topib olganlar quyidagi raqamga qo'ngiroq qilishini so'raymiz +99893 698 92 92.

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Muhammadshukur MUHAMMADJONOV

Musahhihlar:
Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 238-79-95.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etiladi. Hajmi - 2 bosma tabaq. Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeksler: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma - 9-855, Adadi - 10527. Boshishga topshirish vaqti - 21.00. Topshirildi - 20.00

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6